



Namangan viloyati  
Statistika boshqarmasi

## NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- yil  
Yanvar-noyabr**



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'ortalash va har xil turdag'i vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar  
ulushi –  
63,5 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
4 533,3  
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
13 396,7  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi –  
66,2 %**

**Ko'rsatilgan  
bozor  
xizmatlarining  
o'sish  
sur'atlari -  
116,6 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan xizmatlarning  
o'sish sur'atlari –  
114,1 %**

2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **13 396,7 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **2 808,6 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,2 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>13 396,7</b>	<b>116,6</b>
<b>shu jumladan:</b>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	667,3	125,8
Moliyaviy xizmatlar	2 244,7	126,1
Transport xizmatlari	2 250,4	108,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 081,2	108,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	335,1	121,3
Savdo xizmatlari	4 507,0	116,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	370,4	112,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	702,2	126,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	297,3	113,3
Ijara xizmatlari	266,1	121,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	379,4	109,7
Shaxsiy xizmatlar	855,5	105,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	142,7	107,0
Boshqa xizmatlar	378,6	116,5


# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida Ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **126,0 %**. Nisbatan past me'morchilik sohasidagi xizmatlarida kuzatilgan – **107,0 %**.



•●• 2021- y. Yanvar-noyabr

—◆— 2022- y. Yanvar-noyabr

# Namangan viloyati statistika boshqarmasi




2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **2 250,4** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **108,3 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida ushbu turdag'i xizmatlarning ulushi **16,8 %** ni tashkil etdi.

## Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar – noyabr oylarida)



2022- yilning yanvar-noyabr oylariida transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **92,5 %** dan yuqorini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-noyabr oylariida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **92,5 %** ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **33,6 %** ni tashkil etib, bu **4 507,0 mld. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **3 434,7 mld. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **32,4 %** iga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

2022-y.  
yanvar-  
noyabr

4 507,0  
mld. so'm

Xizmatlar  
hajmi

3 434,7  
mld. so'm

116,9 %

O'sish  
sur'ati

115,1 %

2021-y.  
yanvar-  
noyabr

1072,3  
mld. so'mga

Hajmning  
o'sishi



## 2022- yil yanvar-noyabr

## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **75,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **18,6 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **5,6 %** ni tashkil etdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi

(2022- yilning yanvar-noyabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo ulushi **78,0 %** ni tashkil etgan.

# *Namangan viloyati statistika boshqarmasi*



2022- yil yanvar-noyabr

*Dastlabki ma'lumotlar*



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## **Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-noyabr oylarida)**

2022- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 244,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 744,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar hajmidagi ulushi **16,8 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **16,5 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **500,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **126,1 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **126,7 %** ni tashkil etgan.



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar- noyabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,4 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,9 %** ini tashkil etdi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-noyabr oylarida)

Yordamchi moliyaviy  
faoliyat



Sug'urta bo'yicha  
xizmatlar



Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **91,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,7 %** ni tashkil etgan .



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.  
yanvar-noyabr

526,8  
mlrd. so'm

112,4%

5,0 %

2022- y.  
yanvar-noyabr

667,3  
mlrd. so'm

125,8 %

5,0 %




140,5 mlrd. so'mga

2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **91,9 %** ni tashkil etgan.




2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **702,2 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,2 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **126,0 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar


**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.  
Yanvar-novabr




297,3 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2021- y.  
Yanvar-novabr




234,1 mlrd. so'm

2,2 %




Xizmatlarning  
jami hajmidagi ulushi


2,2 %




113,3%



O'sish sur'ati



141,8 %



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

 **Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



230,6 mlrd.  
so'm

2021- y.  
yanvar-noyabr



335,1 mlrd.  
so'm

2022- y.  
yanvar-noyabr



Xizmatlar  
hajmi



112,0 %



121,3 %



O'sish  
sur'ati



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi




2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **104,5** mlrd. so'mga ko'paydi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2021- y.  
Yanvar-  
noyabr

2022- y.  
Yanvar-  
noyabr



Yashash bo'yicha  
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

2022- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'jajida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **82,2** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **82,1** % ni tashkil etgan.



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
<b>Namangan viloyati</b>	<b>13 396,7</b>	<b>116,6</b>	<b>122,7</b>
Namangan sh.	5 505,1	121,9	124,0
<b>tumanlar:</b>			
Mingbuloq	507,7	113,0	123,1
Kosonsoy	675,0	114,2	120,6
Namangan t.	696,4	113,5	123,0
Norin	591,6	112,8	123,9
Pop	817,6	111,1	122,9
To'raqo'rg'on	882,9	112,1	123,7
Uychi	791,3	112,4	118,7
Uchqo'rg'on	634,4	112,3	119,9
Chortoq	716,4	113,0	121,8
Chust	908,7	117,1	121,4
Yangiqo'rg'on	669,6	112,8	120,7


2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-noyabr oylarida)



2022- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – 41,1 % (2021-yilning yanvar-noyabr oylarida – 38,7 %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – 3,8 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 4,3 %) qayd etildi.



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi

4 533,3  
ming so'm



### Hajmning o'sishi

870,6 ming  
so'mga

114,1%

### O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 533,3** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,1 %** ni tashkil etdi.

### Taqqoslash uchun:

2021 - yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3 662,7** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,2 %** da qayd etilgan.



2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

## 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

23 193  
birlik



2450  
birlikka  
o'sgan

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

111,8 %



10,6 %

Ularning umumiyl sonidagi ulushi




2022- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,2 %** ni tashkil etdi

## 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,8 %** ga to'g'ri keldi.

1- dekabr  
holatiga

2021- y.



Xizmatlar sohasi  
statistikasi bo'limi  
Tel.: 69-211-72-00

